



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 12-sentabr, seshanba,
108 (23.829)-son

**KUN
HIKMATI**
Nuroniylik qadri
yosh bilan emas,
boshqalarga
ko'rsatgan ibratiga
qarab belgilanadi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

↓ Prezident qaroriga ko'ra

Ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy- amaliy tibbiyat markazi tashkil etiladi

Davlatimiz rahbari 8-sentabr kuni "Onalar
va bolalar salomatligini muhofaza qilish,
aholining reproduktiv salomatligini mus-
tahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"
qaror qabul qildi.

Unga ko'ra, 2023-yil 1-oktabrda Respublika
ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-
amaliy tibbiyat markazi, Respublika aholi reproduktiv
salomatligi markazi, Respublika "Ona va bola skri-
ning" markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan
ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyat markazi
tashkil etiladi.

Shuningdek, hududiy perinatal, aholi reproduktiv
salomatligi hamda "Ona va bola skrining" markazlari
negizida ushbu markazning 14 ta hududiy filiallari
faoliyati yo'lg'a qo'yildi.

Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy filiallari:
xavf omillari aniqlangan ayollarni tibbiy tekshiruv-
dan o'tkazadi, ularni davolaydi hamda zarur hollar-
da respublika darajasidagi tibbiyat muassasalariga
yo'naltiradi;

nokhlanuvchilar, homilador va tug'ish yoshidagi
ayollar hamda chaqaloqlarni molekulyar tibbiy-gene-
tik tekshiruvlardan o'tkazadi;

irsiy kasalliklar aniqlangan bolalarni maxsus dori
vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'min-
laydi;

sog'lom oilani rejalashtirish hamda istalmagan
homiladorlikning oldini olish chora-tadbirlarini amalga
oshiradi.

Markaz va uning hududiy filiallari tug'ruqqa
ko'pklashish sohasidagi tibbiyat muassasalarini faoli-
yatiga ushbuli jihatdan rahbarlik qildi.

2024-yil 1-oktabrda boshlab har yili 100 tagacha
imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga davlat va no-
davlat tibbiyat tashkilotlari tomonidan yordamchi
reproduktiv texnologiyalar usullari muvaffaqiyatlari
qo'llanganda ushbu amaliyotni amalga oshirish bilan
bog'liq xarajatlar Davlat budjeti mablag'larini hisobidan
Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali qoplab
beriladi.

Samarqandda "Bir nuroniy-o'n yoshga
mas'ul" respublika ko'rik-tanloving
viloyat bosqichi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-martda-
gi "Keksa avlod vakillarini har tomonloma
qo'lاب-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faol-
ligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar
to'g'risida"gi qarori asosida "Bir nuroniy-o'n
yoshga mas'ul" tamoyiliga muvoqif, har bir mahalladagi
yoshlar katta hayotiy tajribaga ega hamda
zamonaviy fikrlaydigan faol nuroniyalarga biriktirilishi
belgilangan edi. Shunga ko'ra, viloyatda
mavjud 1126 mahalladagi nuroniyalar yoshlarga
biriktirilib, o'tgan vaqt davomida ushbu yo'nalishda
tizimli ishlar amalga oshirildi.

- Mazkur ijtimoiy loylighadan maqsad - ibratli va
katta hayot tajribasiga ega nuroniyalarni jamiyat
hayotiga faol jaib qilishdan iborat, - deydi "Nuroniy"
jamg'armasi viloyat bo'limi raisi Shuhrat Negmatov.
- Shuningdek, ularning ijtimoiy faolligini oshirish,
yoshlar tarbiyasida keksa avlod vakillari tajribasidan
keng foydalanish, jinoyatchilik va huquqburzaliklarning
oldini olish, ajrim yoqasida turgan yosh o'ilalarda
barqaror muhitni vujudga keltilish borasida amalga
oshirilayotgan ishlarni targ'ib qilish va ijrosini ta'min-
lashda faol ishtiroy etayotgan nuroniyalarni rag'bat-
lantirishga qaratilgan.

Ko'rik-tanlovda tuman, shahar bosqichida
birinchi o'rinni egallagan nuroniyalar uch shart

Ibratli va katta hayotiy tajribaga ega nuroniyalar bellashdi



B.MUSTANOV oлган suratlari.

bo'yicha bellashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, birinchi o'rinni Kat-
taqo'rg'on shahri vakili Bahriddin Shomamatov
qo'liga kiritib, ko'rik-tanloving respublika bosqichi-
ga yo'llanma oldi, ikkinchi o'rinni payariqlik Ismoil

Boltayev, uchinchi o'rinni narpaylik Hamza Ro'zi-
murodov egalladi.

G'olib va sovrindorlar, faol ishtiroychilarga pul
mukofoti hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

S.MARDIYEV.

**15-17-sentabr kunlari Samarqandda
triathlon bo'yicha "Challenge Samarkand"
xalqaro musobaqasi hamda O'zbekiston
championati o'tkaziladi**

INDALLOSINI AYTGANDA...



Beruniy ALIMOV,
filologiya fanlari doktori:

- Matbuot o'z ustida
qanchalik ishlamasin, tahliliy
materiallarni qanchalik zo'r
berib tayyorlamasini, aholi undan
uzoqlashib ketdi...
"Matbuot kerak emas", deb
qo'limizni qo'ltig'imizga suqib
turaversak, milliy jurnalistikamiz
tarixi bizni kechirmaydi.

Genetik nuqsonli bolalar hamon tug'ilyapti

Yodimda, respublika miqyosida skrining markazlari tashkil etilgan paytida homilador ayollarni mazkur tekshiruvdan o'tkazishga jalb etish oson kechmagandi. Skrining tekshiruvi sog'lom yo nogiron bola tug'ilishi mumkinligini aniqlab berishi haqda eshitganda ko'pchilik buni aniqlash shart emas, bola sog'lom tug'iladi, degan fikrga ishonardi. Hatto tekshiruvga kelgan ayollarga farzandingiz nogiron tug'ilishi mumkin, deya tashxis qo'yilganda ham bunga ishonchszilik bilan qaraganlar ko'p bo'lgan. Ammo ommaviy skrining o'tkazilganda minglab nogironlik holdatlari aniqlandi, buning oldi olindi.



Shuning uchun bugun homilador ayollar skriningdan o'tish uchun o'zlarini kelishmoqda, yanayam mukammalroq tekshiruvlar o'tkazilishini talab etishmoqda, navbatlar kamayishi kerakligini aytishmoqda. Bu talablar, mutaxassislarining tajribalari asosida to'plangan takliflar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, skrining tekshiruvlari takomillashtirilmoqda. Misol uchun, bir paytlar mazkur markaz viloyatda yagona edi. Viloyatdagi barcha homilador ayollar aynan shu markazga kelib, maxsus tekshiruvlardan o'tishga majbur edi. O'sha yilalar markaz yonidagi navbatlar, homilador ayollarning mashaqqatlari ham bor gap. Bugun viloyatdagi har bir shahar va tuman tibbiyot bo'limlarida skrining xonalari tashkil etilgan.

- Endilikda har bir hududdagi homilador ayollarning barchasi o'z tuman tibbiyot birlashmasida skrining tekshiruvidan o'tmoqda, - deydi viloyat Ona va bola skrining markazi rahbari Gulnora Eltazarova. - Shu o'rinda alohida ta'kidlashni istardimki, tuman tibbiyot bo'limlari skrining xonalariida UTT apparati so'ng'gi rusumdagisi, homilaning eng kichik nuqsonlarini ham ko'rsatib berish imkoniyatiga ega. Ko'pchilik markazdagi apparatlar boshqacha, yaxshiroq, degan xayolda shu yerga kelishga urinadi. Vaholanki, ilk skrining uchun markazdagi uskuna ham tumandagilar bilan bir xil. Skrining o'tkazuvchi shifokor homilador ayollarni birlamchi tekshiruvdan o'tkazgach, ulardagagi mavjud holatni to'liq o'rganib chiqishi lozim. Ya'ni, turmush o'tog'i qarindosh bo'lgan, birinchi farzandi nogiron tug'ilgan yoki boshqa holatlar bo'lgan homilador ayollar chuqurlashtirilgan skrining tekshiruvidan o'tish uchun bizning markazga jo'natilishi lozim.

Shu o'rinda ba'zi raqamlarga to'xtalib o'tsak.

(Davomi 3-sahifada) >>>

Zargarlik buyumlari, deylik, arxeologlar uchun tadqiqot manbai, ba'zilar uchun daromad oladigan mahsulot, ba'zilar uchun esa hatto mablag' asrash usuli hamdir. Ammo aksar aholi uchun u go'zallik, san'at namunasi. Rostdan ham, aslida har bir zargarlik buyumi san'at namunasi, ilhom va mehr qorishuvidan yaratilgan ashyodir.

"Zargarlik sohasida o'z brendimiz bo'ladi"



Samarqandda o'tkazilgan zargarlik sanoatini rivojlantrish va uning istiqbollariiga bag'ishlangan ko'rgazma-savdo yarmarkasida Toshkent shahri, Samarqand va Namangan viloyatlarida zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlari bilan tanishar ekanimiz, shunday xulosaga keldik.

Unda payariqlik, o'z atrofidagi xotin-qizlar uchun turli taqinchoqlar yasayotgan zargar hunarmandning mahsulotlaridan tortib, Turkiya bilan qo'shma korxonalar sifatida faoliyat ko'ssatayotgan "UzGold" korxonasi tillari ham o'rinni olib o'tdi.

- Bugun mamlakatimizda ham o'z brendini yaratishga intilayotgan korxonalar mavjud. Misol uchun, Namangandagi "Gavhar" zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonasi milliy va qadimiy dizaynniga tiklash va uni ommalashtirish bilan birga, zamonaviy taqinchoqlarni ham ishlab chiqarmoqda. Bu yerda bugun 200 ga yaqin ishlash kodiym mehnat qiladi.

Ko'rgazma davomida zargarlarning o'zaro tajriba almashinuvini o'z ichiga olgan davra suhbatlari, B2B uchrashuvlari ham bo'lib o'tdi.

- 40 yilda beri shu sohada faoliyat yuritaman, - deydi "UzGold" qo'shma korxonasi rahbari Shevket O'ngur. - 12 yoshimda otam zargar ustaga shogirdlikka berdi, shundan buyon minglab turdagi taqinchoqlar yasadim, ularning asosiy dizayneri ham o'zimman. Toshkentda bir yilda beri faoliyat ko'ssataman, bu yerda taqinchoqlarga qiziqish garchi Turkiyadagidek bo'limasa-da, katta. Turkiyada ayollarning har biri o'zgacha taqinchoq sotib olishni istasa, O'zbekistonda xotin-qizlar bixil qiziqishini kuzatdim.

Xuddi shunday mahalliy ko'rgazmalar yil oxiriga-chaga mamlakatimizning barcha viloyatlarida o'tkazilishi rejashtirilgan.

ELEKTR TA'MINOTIDA UZILISH BO'L MAYDIMI?

Yoxud Prezidentning tizimga oid tanqidlaridan keyingi o'ylar

Yakshanba kuni edi. Qishloqda yurganimda "svet" o'chibdi. Buni menga ro'baro' kelgan odamdan bildim.

- Sen ham aralashib yurasan, elektr endi "odam bo'larmikan"?

Rost, achchiq kinoya bilan aytildan bu gapga nima deb javob berishni bilmadim.

Quruqqina salom-alikdan so'ng, "hayronman", deya yo'limda davom etdim.

Aslida elektr ta'minotidagi muammo bugun kuzatilayotgani yo'q. Ammo o'sha amaki aytganidek, u qachon risoladagidek bo'lishi haqida aniq bayonot yoki xulosalar berilmayapti. Ahvol esa kun sayin yomonlashsa yomonlashyaptiki, yaxhilangani yo'q.

TARIX YOKI MUAMMONING ILDIZIGA NAZAR

Esingizda bo'lsa, 2017-yil 29-maydagi Prezident farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurutasi huzurida Majburiy iyo byuroysi tashkil etildi. Tashkilot sud hujjatlari ijrosini ta'minlash bilan birga energiya resurslari uchun to'lovning o'z vaqtida va to'liq undirilishiga, elektr va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ularish hamda talon-toroj qilish hotarlari aniqlash, bartaraf etish va oldini olishga mas'ul bo'lardi.

Uch yilda so'ng davlat rahbarining yana bir farmoni bilan MIBning elektr energiyasi va tabiy gaz uchun to'lovlar ni o'z vaqtida va to'liq undirilishini ta'minlash, iste'molchilar qarzdorligini kamaytirish, shuningdek, elektr energiyasi va tabiy gaz sotuvni iste'molinli hisobga olish bo'yicha vazifa va vakolatlari "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududga minoti" AJning hududiy tashkilotlari o'tkazildi.

Garchi rasmani aytilmagan bo'lsa-da, bu elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning automatlashtirilgan tizimi joriy etilgani bilan izohlandi. Ya'ni, iste'mol va kelib tushgan pulni inson omilisiz aniqlash mumkinligiga ishonildi.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali mutasaddilari 2020-yilda viloyatimizga 825,4 mingta ASKUEni o'natsish rejalashtirilgani va 692,6 ming dona hisoblagich keltirilganini aytishgan edi. Keyinchalik xalq dep-utatlari viloyat Kengashi sessiyalarida berilgan hisobotlarda bu ish yakuniga yetkazilgani aytildi.

AMALDA-CHI?

Saytimizda yil boshi, aniqrog'i fevral oyida "Payariqliklar nega elektr tarmoqlari korxonasidan norozi?" sarlavhani maqola e'lon qilingandi. Unda tumannda elektr energiyasi ta'minoti yomon ekanligi tilga olinib, masalaning mohiyati yuzasidan mutasaddilarning izohi berilgan.

Qayd etilishicha, tumanda aholining elektr energiyasidan debitor qarzdorligi 14 milliard so'mni, ulgurji iste'molchilarни 7 milliard so'mni tashkil etadi. Qanday qilib?

Aslida bu savol biz uchun ham qiziq. Axir, bu ish uchun Osyo taraqqiyot banki va Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan 200 million dollar hamda 150 million yevro miqdorida kredit (Policy Based Loan) ajratilgan.

Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorida 2021-yil 1-iyulda elektr hisoblagichlar va qo'shimcha asbob-uskunarni o'natsish ishlarni yakunlash, ularni elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning automatlashtirilgan tizimiga 20-sentabrgacha ulash belgilangan.

Mavjud holat bu ish haligacha yakunlanmagan, degan xulosaga olib kelmoqda.

KULASIZMI, KUYASIZMI?

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, viloyatimizda elektr energiyasida uzilishlarni tezkor aniqlash va bartaraf etish maqsadida korxona dispatcherlik markaziga elektron tablo o'rnatilib, maxsus tizim orqali viloyatimizning barcha hududlaridagi qarib 10 ming 800 ga yaqin transformatorning ishlash holatini nazorat qilish joriy etilgan.

Bu 2020-yilgi ma'lumot. Lekin MIB viloyat boshqarmasi 2022-yil yakuniga ko'ra, elektr tarmoqlari korxonalarini foydasiga 21,5 milliard so'mlik 414 ta ijo hujjati mavjudligini bildirgan.

To'g'ri, ular orasida tarmoqa noqonunyi ulanganlar va boshqa qoidabuzalar ham borligi tabiiy. Ammo Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi 2022-yil davomida 55 ta murojaatni o'rganib, iste'molchilariga qarib 7 million so'm noreal qarzdorlik hisoblanganini aniqlagan.

Mazkur ma'lumotdan kelib chiqib, elektr tarmoqlarining viloyat mutasaddilari "inson omili aralashmaydi, deyil-gan tizimda bunga qay tarqa yo'li qo'yiliyapti?", degan savol yo'ladik.

Rasmiy javob xatiga ko'ra, "2022-yil davomida qayta hisob-kitob qilingan istemolchilarining elektr hisoblagichlar eski rusumli bo'lganligi sababli ko'sratkichlari DK "Elektrhisob" dastur orasida farq yuzaga kelib qolgan.

ASKUE tizimiga mos elektr hisoblagich o'rnatilgan iste'molchilarida inson omili aralashmaydi."

Hukumat qaroridan bir yil o'tib ham shunday ma'lumot taqdim etilayotganini izohlab o'tirmaymiz. Ammo holat boshqalar bilan ham takrorlanmasligi uchun iste'molchi nimalarga e'tibor qilishi, nimalarni bilishi kerakligi haqida biron nima deyilmaganai ajabianlar.

OQIBATDA NIMA BO'LDI?

To'g'ri, bu savolga har kimning o'ziga yarasha javobi bor. Oddiy misol, o'tgan qish faslidida, qahraton kurnlarda haftabab elektr ta'minotisiz qolgan hududlar bo'ldi.

Buni anomal sovuq, iste'molchilar noqulay ob-havo sharoitida ko'proq elektr energiyasidan foydalanyotgani bilan izohlashdi. Lekin kunlar isib, yoz oylariga kelganda tarmoqda yana tez-tez uzilishlar kuzatildi. Bu safar muammo harorating ko'tarilib ketganiha bog'landi.

To'g'ri, rasmiy larga ko'ra, viloyatdagi elektr uskunalarning 40 foizdan ko'proq ieskiran. Ammo hech bir o'rinda qarzdorlik ortib borayotgani, iste'mol va to'lov o'rtaida tafovut borgan sari kattalashib ketayotgani haqida gap bo'lgan yo'q. Vaholanki, bu avholni boshqa hududlarda ham kuzatish mumkin. Mayli, gap bunda ham emas, ammo yuqoridagi raqamlardan anglish mumkin, avholni o'nglash uchun tizimning o'zida deyarli imkoniyat yo'q.

Biroq mutasaddirning matbuot anjumanida bergan ma'lumotidan buning uchun 150 milliard so'm mablag' talab etiladi. Tabiyligi, burcha yirik miqdordagi summani respublika budgetidan ajratilishi qiyin masala. Chunki ayni shuncha summa sarflanadigan Shirin shaharchasi uchun pal qarzaq olinayti.

Qolaversa, yillariki, ko'rlik, guvoh bo'dik, muammo faqat tizimning eskirgani bilan bog'liqmas.

Demak, munosabatni, ish tartibini o'zgartirish kerak.

QO'LDAN BERGANGA QUSH TO'YMAS

Payariq tumanida aholi xonadonlarini elektr energiyasi bilan ta'minlashda ko'p muammolar mavjudligi bir necha bor tanqid qilindi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida o'tgan yili 9 milliard so'mga yaqin budget mablag'i ajratildi. Ammo...

Ayni malanali o'rganish uchun borgan muxbirimiz tuman elektr tarmoqlari korxonasingin o'zida "svet" yo'qligiga guvoh bo'lgan. Vaholanki, bu avholni boshqa hududlarda ham kuzatish mumkin. Mayli, gap bunda ham emas, ammo yuqoridagi raqamlardan anglish mumkin, avholni o'nglash uchun tizimning o'zida deyarli imkoniyat yo'q.

Biroq mutasaddirning matbuot anjumanida bergan ma'lumotidan buning uchun 150 milliard so'm mablag' talab etiladi. Tabiyligi, burcha yirik miqdordagi summani respublika budgetidan ajratilishi qiyin masala. Chunki ayni shuncha summa sarflanadigan Shirin shaharchasi uchun pal qarzaq olinayti.

Qolaversa, yillariki, ko'rlik, guvoh bo'dik, muammo faqat tizimning eskirgani bilan bog'liqmas.

Demak, munosabatni, ish tartibini o'zgartirish kerak.

XOHISH BO'LSA, UDDALASA BO'LADI(MI?)

Viloyat bo'yicha 24 ta avariayivi chiqish mashinalari bilan ta'minlangan tezkor chiquvchi brigada tashkili qilingani yetgilandi. Shuningdek, viloyat bo'yicha 76 ta ekspluatatsion ta'mirlowchi brigada tashkili etilgan. Bir necha yil oldindagi tizim haliyam ishilayaptimi?

Vazirlar Mahkamasini qarorida belgilab berilgan muddat o'tib ketgan bo'lsa-da, iste'molchilarini to'liq ASKUEga ulash kerak emasmi? Umuman, billing tizimini, masofaviy nazoratni to'liq va to'g'ri yo'iga qo'yish uchun nima to'sqinli qilyapti?

Yaqinda jamoatchilikka hisobot bergan Naripay tumanini hokimi 2022-yilda 476 million kWh elektr energiyasi yetkazib berilgani va 41 million kWh defitsit kuzatilganini aytgan. Amalga oshirilgan ishlarni natijasida yil yakuniga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali 4 million kWh defitsit qoplanadi.

Shuning o'ziyoq qarzdorlikni kamaytirib, asosiy tarmoq bilan to'g'ri (olishda ham, to'lovda ham) hisob-kitobni yo'ga qo'yishni taqozo qilmayapti? Zotan, boshqa yo'li ko'rinnayaptiku.

Yana bir variant bor: ta'minotga xususiy sektorni jalb qilish mumkin. Alibatta, bu endi alohida mavzu.

Kun mavzusi

TAHRIRIYATDAN: iste'molchilar elektr energiyasi bilan uzuksiz ta'minlash shu kunning dolzarb masalalaridan bira. Sohada kuzatilayotgan ayrim savollar ko'pchilikni qiziqtirishi tabibi. Shu bois ularga javob olish maqsadida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali direktori Umid Nazarovga bir necha savollar bilan murojaat qilgandik.

- Tizimda modernizatsiya va reconstruksiya ishlarni xavfsiz olib borish maqsadida qator hududlarda maqsadli o'chirishlar amalga oshirildi, - deyiladi suhbat uchun yuborilgan savollarga berilgan javob xatida. - Bu haqda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va uning filiallari hamda energetika vazirligining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa va kanallari orqali kamida bir sutka oldin xabarlar e'lon qilib borilmoqda.

Respublikamizda ob-havoning haddan tashqari isib ketgani elektr energiyasini uzuksiz va yo'qotishlarsiz yetkazib berishda qiyinchiliklar tug'dirdi. Iste'molchilar tomonidan havoni sovitish uskunalaridan foydalaniishi natijasida elektr energiyasidan foydalanan bir necha bor oshdi. Oqibatda kabellar kuyib, transformatorlar ishlash chiqishi mumkin. Ushbu holatlardan sodir bo'lismining oldini olish maqsadida iste'molchilar ogohlantirilgan holda rejali o'chirishlar amalga oshirilmoqda.

- Iste'molchilarga ogohlantirishsiz uzilish oqibatida yetkazilgan zararni qoplab berish masalasi qay ahvolda?

- Hozirgi kunda viloyatimiz iste'molchilariga yetkazib berilayotgan elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash hamda elektr energiyasi iste'moli limiti miqdorida elektr energiyasi yetkazib berilishi borasida barcha zarur chora-tadbirlar ko'rilmadagi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yillardagi "Elektr energiyasi va tabiy gazdan foydalanan tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, hududiy elektr tarmoqlari korxona

onalari elektr tarmoq'i xo'jaligi obyektlarining rejali ta'milanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan ushishlar to'g'risida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning Samarqand hududiy filialining telegram kanali hamda tuman va shahar hokimliklari rasmiy ijtimoiy sahifalarida e'lon qilinmoqda.

Joriy yilda avariya holatlardan tashqari, iste'molchilarga ogohlantirishsiz uzilish oqibatida yetzelilgan zararni qoplab berish bo'yicha biror bir holat bo'limgan.

- O'tgan qish mavsumida faqat shahar xalq qabulxonasining o'ziga 300 dan ko'proq elektr ta'minotidagi uzilishlar bilan bog'liq murojaatlar bo'lgan.

Bu galgi kuz-qish mavsumida bu raqam kamayadimi?

- O'tgan yili qish mavsumida iste'molchilarning elektr energiyasiga talabi keskin oshishi kunlik elektr energiyasi iste'molining ham oshishiga olib keldi. Buning oqibatida ishlab turgan yuqori kuchlanishli ayrim elektr uzatish tarmoqlarining himoya qurilmalarida qisqa muddatli o'chirishlar takrorlanishi kuzatildi.

Joriy yil "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorlarlik ko'rish bo'yicha kapital ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

- Shu o'rinda o'tgan yili qish faslidida viloyatdagi haftalab (balki undan ham ko'p) "svet" siz qolgan mahallalarda bu hol takrorlanmasligi uchun 40 milliard so'm mablag' zaruriyati aytilmoqda. Ma'lum bo'lismicha, hozircha bu mablag' manbasiga aniq emas.

Demak, o'sha hududlarda kunlar sovishi bilan yana o'tgan yilgi muammolar takrorlanadimi?

- 2023-2024-yilning kuz-qish mavsumiga tayyorlarlik ko'rish bo'yicha 35-110 kW kuchlanishli 13 ta transformator, 2941,2 kilometr 0,4-110 kW kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari, 6-10/0,4 kW kuchlanishli 1174 ta transformator punktlari mukkamal ta'mirlandi.

Shuningdek, 35-110 kW kuchlanishli 129 ta transformator, 7012,8 kilometr 0,4-110 kW kuchlanishli elektr uzatish

tarmoqlari, 6-10/0,4 kW kuchlanishli 2102 ta transformator punktlari joriy ta'mirlandi.

Kuz-qish mavsumida favqulodda avariyalarni qisqa mudatlarda bartaraf etish uchun 36 ta tarmoq transformatori, 20,2 tonna transformator moyi, 75 ta temir-beton tayanch, 1 tonna sim, 5,9 kilometr kabel va 65 ta kabel muftalaridan iborat zaxira yaratiladi.

- Hisobotlarga tayanilsa, viloyatda to'liq ASKUE (elektr energiyani hisoblashning avtomatlashirilgan tizimi)ga o'tilgan. Ya'ni, abonent hisobdagagi pul mablag' i tugasa, u tarmoqdan avtomatik uzilish qilish qo'yilishi kerak.

Ammo ayrim iste'molchilarga elektr tarmoqlari xodimi qarzingiz bor ekan, deganligi haqida eshitib qolamiz. Va, uni "yopib" berayotganlar qo'iga tushganligi haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabarlar beriladi. Buni qanday izohlaysiz?

- Bugungi kunda viloyatda zamonaviy onlayn elektr hisoblagichlar o'rnatilgan bo'lib, aholi iste'molchilarining hisobdagagi pul mablag' i tugasa, masofaviy avtomatik tarzda o'chiriladi. Ammo ulgurji iste'molchilar o'ching oxirgi kunlarda DK "Elektrhisob" dasturida hisob kiritilgandan so'ng qarzdorlik aniqlangan taqdirda masofaviy o'chiriladi. Ulgurji iste'molchilar tomonidan to'lov amalga oshirilsa, iste'molchi to'lagan to'lov pattasini tuman va shahar elektr ta'minot hisobchilariga taqdirm qilgan qarzdorlik masofaviy qo'shib beriladi.

- Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi 2022-yil davomida 55 ta murojaatni o'rganib iste'molchilarga q

Genetik nuqsonli bolalar hamon tug'ilyapti

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

1617 NAFAR HOMILADORDA TUG'MA RIVOJLANISH NUQSONI ANIQLANGAN

2023-yil 7 oyi davomida viloyatdagi skrining xonalarda 12 haftalikkacha ro'y-xatga olingan 64985 nafar homiladordan 62345 nafari birlamchi skrining tekshiruvidan o'tgan. Tekshiruvlar natijasida 1617 nafar homiladorda akusherlik va tug'ma rivojlanish nuqsonlari aniqlanib, barchasi to'xtatilgan. Bundan tashqari, xavf guruhiga mansub bo'lgan homiladorlardan 8080 nafari viloyat Ona va bola skrining markaziga yuborilgan. Jami 4954 nafar xavf guruhidagi homiladorda biokimiyov skrining o'tkazilgan.

2022-yil 7 oyi davomida esa homildorlarning birlamchi skriningdan o'tishi 56,3 foizini tashkil etgan. Tekshiruvlar natijasida 1694 nafar homiladorda akusherlik va tug'ma rivojlanish nuqsonlari aniqlangan bo'lib, barchasi to'xtatilgan. Bundan tashqari, xavf guruhiga mansub bo'lgan homiladorlardan 5600 nafari viloyat markaziga yuborilgan.

Shahar, tumanlar kesimida birlamchi tekshiruvdan o'tgan homiladorni tahsil qiladigan bo'is, viloyat ko'sratkichidan past bo'lgan Qo'shabot tumanida homiladorlarining 85,8 foizi tekshiruvdan o'tkazilgan. Past Darg'om tumanida bu 92,1 foizni tashkil etgan.

Shu muddat davomida viloyat Ona va bola skrining markazida 32681 nafar (2022-yil 36261 nafar) homilador ikilmilchi va uchlamchi skrining tekshiruvlaridan o'tkazilgan. Ulardan 516 nafarida tug'ma rivojlanish nuqsonlari aniqlangan. Bu ko'sratkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 nafarga bo'p. Nuqsoni aniqlangan homiladorlarning 242



nafariga homiladorlikni to'xtatishga yo'llanma berilgan va barchasida to'xtatilgan. 274 nafarida tug'ilgandan so'nig xirurgik correksiya o'tkazish imkoniyati mavjud bo'lgan nuqsoni homila aniqlanganligi sababli tegishli tashkilotlarga qayta tekshirish uchun yuborilgan.

251 NAFAR BOLA TUG'MA GIPOTERIOZ KASALLIGI BO'YICHA TIBBYI KUZATUVGA OLINGAN

- To'g'ri, tekshirishlar o'tkazilayti, raqamlardan ham ma'lum, jismoniy nuqsoni bo'lgan homilalar o'z vaqtida aniqlanmoqda, - deya subnabti davom ettiradi G.Eltazarova. - Ammo tashqi ko'rinishida nuqson bo'lmay, turli irlsi xastaliklari mavjud bo'lgan homiladorlarning to'liq aniqlash uchun hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni bor. To'g'ri, ushbu xastaliklarni aniqlash uchun zamonaviy uskunalar mavjud, ammo uni to'la tasdiqlash uchun homilador ayol poytaxtga borishi kerak. U borishi lozim bo'lgan tibbiyot markazida har doim ham reaktivlar bo'imasligi mumkin, shuning uchun xususiy markazda

tekshiruvdan o'tishiga to'g'ri keladi. Bu esa juda qimmat. Shuning uchun ham viloyatda bir qator irlsi xastaliklilar bilan tug'ilish hamon davom etmoqda. Chunki aynan bizda mazkur xastaliklarni yuzasidan o'tkazilayotgan tekshiruvlar, yuz foiz shu xastalik bilan tug'iladi, degan ma'lumotni bermaydi. Agar mutaxassis bo'lsa, mazkur tekshiruvni Samargandcha ham o'tkazish mumkin.

Misol uchun, 2023-yil 7 oyi davomida 4954 nafar xavf guruhiga kiruvchi homildorlardan tegishli qon namunalari olingan bo'lib, irlsi kasalliklarga moyilligi yuqori chiqqan 614 nafar homilador ayolga genetik tomonidan maslahatlar berilidi. Markazda 7 oy davomida yangi tug'ilgan 33245 nafar chaqaloqdan tug'ma gipoterioz va nashiy kasallik bo'lgan fenilketonuriyaga qon namunalarini tekshirilgan. Shundan 44 nafar chaqaloqda fenilketonuriyaga kasalligi xavf guruhini aniqlanib, ushbu chaqaloqlar qayta qon tekshiruvlaridan o'tkazilganda, 2 nafarida kasallik tasdiqlangan. Jami 62 nafar bola mazkur kasallik bilan "D" nazoratiga olingan. 102 nafar chaqaloqda tug'ma gipoterioz xavf guruhini aniqlandi. Qayta tekshirish o'tkazilganda, 12 nafarida kasallik tasdiqlandi va dispanser nazoratiga olindi. Bugungi kunda 251 nafar bola tug'ma gipoterioz kasalligi bo'yicha tibbyi kuzatuvga olingan. Hozirgi kunda "D" nazoratidagi ushbu bolalar maxsus bo'tqa va dori-darmonlar bilan ta'minlanmoqda.

Nuqsonli bolalar tug'ilishining oldini olish amallari bosqichma-bosqich davom etmoqda. Ammo irlsi kasallik bilan tug'ilishni yo'qotish uchun hali ko'p ishlar olib borilishi kerak. Yugoroda ta'kidlaganimday, buning uchun tegishli tashkilotlarga takliflarini berganmiz.

Gulruh MO'MINOVA.



Viloyatimizda 2023-yil paxta hosili uchun 2219 fermer xo'jaligi hamda 15 ta klaster korxonasi tomonidan 70,4 ming hektar maydonda g'o'za parvarish qilindi. Yaqin kunlarda hosili yi'g'ishtirishga kirishiladi. Paxtakorlarimiz joriy yilda klaster korxonalariga 275 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi sotishni rejalashtirgan. Terim ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun 1671 ta terim otryadi tashkil etildi.

- Bu yilgi mavsumda 32 dona terim mashinasidan foydalish rejalahshtirilgan, - deydi viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi shu'ba bosh mutaxassis M.Maxamov. - Shuningdek, 86,1 ming nafar uyushmagan aholi, 40,1 ming nafari fermer xo'jaliklari va klaster korxonalarining ishlchlari terimchi sifatida jaib etiladi. Tumanlardagi 28 ta paxta qabul qilish maskanlarida joriy va kapital ta'mirlash ishlari yakunlanmoqda.

Past Darg'om tumani viloyatimizda, eng ko'p hajmda paxta yetishtiruvchi hududlardan hisoblanadi. Tuman-da joriy yilgi paxta hosili uchun 287 fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan 16 ming 949 hektar maydonda g'o'za parvarishlandi. Tuman paxtakorlari ushbu maydonlardan 54,5 ming tonna xomashyo tayorlashni rejalashtirishgan. Yetishtirilgan hosili qisqa muddatda

yig'ishtirib olish uchun 360 ta otryad shakllantirilib, 29,5 mingdan ortiq temrikchi biriktirilgan.

Tumanda "Samargand kamalak invest tekstil" MCHJ paxta to'qimachilik klasteri faoliyat yuritadi va ushbu klaster yetishtirilgan barcha paxta hosilini kontraktatsiya shartnomalari orqali qabul qiladi.

- Jaib qilinadigan terimchilarga 80 ta terimchi tashish vositasini, 280 ta xomashyoni tashish transporti hamda 426 ta tirkama, 59 ming dona etak hozirlandi, - deydi tumani hokimligi bosh mutaxassis Rustam Eshqobilov. - Shuningdek, 360 ta tarozi, shuncha qozon-o'choq, suv saqlash baklari mavsumga tayor holatga keitirildi.

Tumandagi 6 ta paxta qabul qilish punktlari zamona elektron tarzo, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlandi.

O'XUDOYBERDIYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetiga 2024-yil uchun quyidagi ixtisosliklar bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limning tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc), stajyor tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilik shakllariga

TANLOV E'LON QILADI

Ixtisoslik shifri	Ixtisoslik nomi	Tayanch doktorantura (PhD)	Doktorantura (DSc)	Maqsadli tayanch doktorantura (PhD)
03.00.05	Botanika	3	1	0
03.00.06	Zoologiya	3	0	0
03.00.08	Odam va hayvonlar fiziologiyasi	2	0	0
05.07.01	Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya ishlarni mexanizatsiyalash	2	0	0
06.01.08	O'simlikshunoslik	2	0	0
06.02.03	Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi	4	1	0
16.00.01	Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va chirurgiyasi	3	0	0
16.00.02	Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiysi. Veterinariya akusherligi va hayvonlar reproduksiysi biotexnikasi	4	0	0
16.00.03	Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootiologiyasi, mikologiyasi, mikotoksikologiyasi va immunologiyasi	2	0	1
16.00.04	Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi, ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar-sanitariya ekspertizasi	4	0	0

Tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlardan quyidagi hujjalarni taqdim etishlari talab etiladi:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka - namuna 3.5 shakl bo'yicha o'zbekcha va ruscha shaklda);
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- olyi ma'lumot, fan nomzodi yohud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- tadqiqot mavzusini bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining batafsil loyihasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis);
- ish joyidan tavsifnomasi (mustaqil izlanuvchilar uchun);
- pasport nusxasi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stendiyasi hujjati nusxasi (majjud bo'lsa);
- IELTS, TOEFL yoki boshqa tan olingan sertifikatlar.

Doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlardan quyidagi hujjalarni taqdim etishlari talab etiladi:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka - namuna 3.5 shakl bo'yicha o'zbekcha va ruscha shaklda);
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- olyi ma'lumot, fan nomzodi yohud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- tadqiqot mavzusini bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining batafsil loyihasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis);
- ish joyidan tavsifnomasi (mustaqil izlanuvchilar uchun);
- pasport nusxasi;
- ilmiy yutuqlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stendiyasi hujjati nusxasi).

Hujjalar qabul komissiyasi tomonidan 15-sentabrdan 15-oktabrgacha bo'lgan muddatda universitet 2-binosining ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limida qabul qilinadi (205-xona).

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Murojaat uchun telefonlar:

+ 99866-234-98-71, +99899-579-28-79.

Eslatma: Barcha hujjalar pdf shaklda tayyorlanib, olyi ta'limdan keyingi ta'limni muvoqiflashtiruvchi yagona elektron tizim (<http://phd.mininnovation.uz>) orqali ro'yxatdan o'tgan holda yuboriladi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Fazilov Ismailga (2009-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Rahmanov Gulnara Egammarovna (2023-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxonovich notarial idorasida marhum Xamidov Djamolga (2022-yil 20-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxonovich notarial idorasida marhum Babakulova Matlubaga (2023-yil 19-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Abdugafurov Abduraim Abduraufovichga (2021-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Abdugafurov Abduraim Abduraufovichga (2021-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida murojaat etishlarini so'

"Zarafshon" gazetasi 110 yoshda



Ahmadjon Muxtorov (o'rtada) -
(chapdan) Mannob Najmuddinov, G'ulom Aliyev, Hamza
Shukurov, Habib Temirov va Mirsharif Xo'jayev bilan.

GAZETA BERGAN SABOQ

1971-yil yozi edi. O'rta maktabni "a'llo" baholar (ikkita "4"ni hisobga ol-maganda) bilan bitirganligim haqidagi hujjatni olgach, ko'p yillik orzuim - huquqshunos bo'lish uchun oliy o'quv yurtida tahlil olishni maqsad qildim. Shu niyatda SamDU qabul bo'limiga bordim. SamDUda huquqshunoslik bo'limi yo'qligi, yuridik fakultetga o'qishga kirish uchun Toshkentga borishim lozimligi va ushbu bo'limga 2 yillik mehnat stajisiz hujjat qabul qilinmasligini aytishdi.

Qarorim qat'iy bo'lganligi sababli boshqa olyigohga hujjat topshirmadim. Orzuimni amalga oshirish uchun ishga kirish va ikki yillik mehnat staji to'plash choralarini izladim.

Oradan 3-4 oy o'tdi. Noyabr oyi oxiri yoki dekabr boshi edi. Bir kuni mahallamiz pochtaloni odatdagidek biz obuna bo'lgan bir necha nomdagi gazeta-jurnallarni olib keldi. Gazeta-jurnallarni birma-bir o'qib chiqdim. Navbat viloyat gazetasi - "Lenin yo'lli" (hozirgi "Zarafshon")ga keldi. Gazetani mutolaa qilar-kanman, 4-sahifaning past-rog'idagi "Ishga taklif" degan kichkina e'longa ko'zim tushdi. Unda gazeta tahririyatiga mu-sahhihning, ya'ni imlo xatolari tuzatuchining yordamchisi kerakligi va murojaat uchun manzil yozilgandi. Bu men uchun ayni muddao edi: ikki yil ishlab ham bilmimoni oshiraman, ham mehnat stajiga ega bo'laman.

Ertasi kuni Maysara ismili dugonam bilan redaksiyaga bordik. Darvozadan kiraverish-dagi mo'jazgina hovlining chap tomonidagi uch qavatlari binoga kirib, eshkog'adan bosh muharrir xonasini so'radiq va "2-qavatagi 1-xona" degan javobni oldik. Aytigan joyga kirsak, kotiba o'tirgan ekan. O'ng tomonda eshik bo'lib, unda "Bosh muharrir N.Sh.Shukurov" degan yozuv bor edi.

Kotibaga maqsadimni ayt-dim. U muharrir xonasiga boshlardi. Salom-alikdan so'ng qo'limdagi gazetani ochib, e'lon joyini ko'ratisib, muddaoga o'tdim. Bosh muharrir dastlab mening qaysi maktabda o'qiganligimni so'radi. So'ng: "Tahririyatining bosh korrektori diktant oladi, diktantni ijobiy bahoga yozganlar qabul qilinadi. Tayyormisiz?", dedi. "Ha, men tayyormani", dedim.

Bosh korrektor menden diktant oldi. Natija "a'llo" ekanligi ma'lum bo'lgach, yana bosh muharrir huzuriga kirdik. U men-ga: "Qizim, ikki oydan keyin shu shtatda ishlayotgan xodimimiz homiladorlik ta'iliga chiqadi, o'sha joyga sizni ishga olamiz. Fevral oyi boshlarida kelasiz", dedi.

Shundan qilib, men 1972-yil fevral oyida viloyat gazetasiga musahih yordamchisi vazifasiga ishga qabul qilindim. Shu tariqa tahririyatda bosh korrektori, ajoyib inson, g'amxo'va talabchan murabbiy Zubarjad Mahmudova bilan ishlay bosh-ladim. Kattayu kichik "Zoya opa" deb chaqiradigan tatar millatiga mansub bu ayol o'zbek tilining nozik jihatlarigacha mukammal biluvchi, yuksak madaniyat

sohibi edi. 1973-yilda Nuriddin Shukurov betob bo'lib, ancha vaqt davolandi. Tuzalgach, SamDUning o'zbek va tojik filologiyasi fakultetiga dekan lavozimida faoliyatini davom ettirdi. U kishining o'nida gaze-ta bosh muharrir o'rinosari Ahmadjon Muxtorov ish boshladidi va ko'p o'tmay bosh muharrir lavozimiga tayinlandi.

Korrekturada mendan tash-qari Hafiz Hojiyev, Sanoat Najmuddinova (Allori rahmat qilsin), Mastura Bobojonova, Nasiba Mamedova, Po'lat Berdiqulov, Matluba Raupova ishlardan. Biz, musahihlar gazeta sahifalarida chop etilayotgan maqolalar-ni o'qib, ko'rsatilgan xatolarni tuzatish uchun bosmaxonaga berardik. Undan keyin sahi-falar navbatchi muharririga o'qish uchun berilardi. Sahifani ko'zdan kechirgancha navbatchi muharrir musahihlarni ichki telefon orqali chaqirardi. Biz navbatchidan sahifani olardik va ishning keyingi jarayonlari bajarishga kirishardik. Bosh muharrir bo'lsa-da, Ahmadjon Muxtorov bizni xonasiga chaqirmas, o'qigan sahifani o'zi olib kelar, shu bahonada barcha bilan salomlashib, bislardan hol-ahvol so'rab ketardi.

O'sha paytlar hukumat dara-jasidagi majlislar (s'ezd, quruloy) bayoni, unda qilingan ma'ruzalar to'lig'icha gazetada chop etilardi. Ana shunday paytlar ishimiz tong-gacha davom etardi. O'sha kuni navbatchi muharrir boshqa kishi bo'lsa-da, Ahmadjon Muxtorov uyiga ketmasdan ishda qolardi va gazetaning shu soniga mutasaddi bo'lganlarga (hatto bosmaxona xodimlariga) g'amxo'rlik ko'ratisib, kechki ovqatni tashkil qilar, gaze-ta bosmadan chiqquncha - tong-gacha uya ketmasdan barcha qator o'tirardi. O'tirganda ham xizmatxonasida emas, asosan vaqtini bosmaxonada o'tkazar, ya'ni ishni tezlashtirish choralarini ko'rardi. Bu hammaning ham qo'ldan kelmaydi. Ahmadjon akaning bunday fazilatlarining sanog'i yo'q.

Endi mening hayotimda burlish yasagan voqeani aytay. 1973-yil iyul oyida otib o'pa muharrir chaqirayotganini xabar qildi. "Hoynahoy, sahifani so'rasalar kerak", degan fikrda hali yarmi o'qilmagan sahifani olib, Muxtorov xizmatxonasi ga bordim. Xonaga kirib, hali ko'zdan kechirilmagan maqolalar borligini aytdim.

- Sizni boshqa masalada chaqirgandim, - deya gap boshladi Ahmadjon aka. - Kecha tahririyat xodimlari hujjatlar bilan tanishgandim. Tanishuv davomida

angladimki, siz maktabni a'lo ba-holarga bitirgan ekansiz. Buni ish faoliyatizingiz davomida isbotladin-giz. Lekin nega oliy o'quv yurtiga o'qishga kirmagansiz?

Men maqsadimni aytdim.

- Otam meni o'zi kabi huquqshunos bo'lishimni istay-dilar. Yana bir yil ishlasam, keyin huquqshunoslik bo'limiga hujjat topshirish. Yaqinda Samarqa-nd davlat universitetida ham shu bo'lim ochilarmish, - dedim.

Muddaomini eshitib, sekin gap boshladilar:

- Otangiz to'g'ri maslahat beribdi. Amal qilsangiz, kam bo'lmaysiz. Bejiz "Ota rozi - Xudo rozi" deyishmagman. Sizga aka sifatida bir taklif aytaman: iqtidoringizga tayanib, filologiya fakultetiga o'qishga kiring, xohlang, sirtqi bo'limga kirib, shu yerda ishingizni davom ettiring. Ertaga javobini aytasiz.

Uya kelib, ota-onamga bo'lib o'tgan suhbat tafsilotini gapirib berdim. Dadam va oyim "Muhammar yaxshi taklif aytdi", deya qarshi bo'lmadi. Ertasi kuni Samarqand davlat universitetining o'zbek va tojik filologiyasi fakulteti sirtqi bo'limiga hujjatlarimni topshirdim. Inti-honlardan o'tib, talaba bo'ldim. Shu bilan birga tahririyatda ish faoliyatimni davom ettirdim.

1987-yil fevral oyigacha shu dargohda musahih yordamchisi, musahih, bosh musahih, mas'ul kotib o'rinosari, bo'lim xodimi sifatida mehnat qildim.

Gazeta tahririyatida ishlash davomida nafaqat men, butun jamoa Ahmadjon Muxtorovning jurnalist sifatidagi iqtidoriga qoyil qolardik. Bunga bitta misol. U kishi tushlikkacha viloyat miyosidagi yig'lishtash qatnashib, ba'zida tushlik ham qilmay, harf teruvchi mashinistka (onaxonimiz Faniya Sa'diyeva, Nasiba va Jamila opa) larga gazetaning bir sahifasiga to'la siq'adigan (bir sahifaga suratsiz 35, 37-bet joylashardi) materialni to'g'ri dan-to'g'ri aytilib yozdirilay va bu maqola gazetaning o'sha kungi sonida bosilardi. Bu o'ta murakkab, katta jurnalistik mahoratni, butun diqqat-e'riborni bir nuqtaga jamlashni talab etadi-gan "yumush" edi. Shuningdek, Ahmadjon Muxtorov iqtidori yoshlarini qo'llab-quvvatlab, ularning unib-o'sishiga beg'araz va beminnat ko'maklashardi.

1987-yilda o'zim bilim olgan SamDUning filologiya fakultetiga ishga qabul qilindim. Matbuot sohasidagi faoliyatim ilmiy-pedagogik faoliyat bilan davom etdi. Bunda Ahmadjon Muxtorovdan, qolaversa, "Lenin yo'lli" dan olgan sabog'im katta ko'mak berdi.

Zamira RAHMATOVA.

Husniddin XOLDOROV.

Eshik qiya ochilib, kotibaning xiyol titroqli ovozi eshitildi.

- Rashid Hamidovich, telefonda rafiqangiz so'rayapti.

U o'ng yonida stolda turgan qator telefonlardan birining go'sha-gini ko'tardi.

- Allo?

- Dadasi, onajonimizdan ayrilib qolibmiz, - Sayyoraning hiqillab yig'lagan eshitildi. - Mahalla oqso-qoli qo'ng'iroq qildi, janoga kech soat beshda ekan...

Rashid Hamidovichning qo'li dan go'sha tushib ketdi, tok urganda qotib qoldi: "Onam, bechora mushtipar onaginam! O'libdi! Nega, nega o'ladi, sop-pa-sog' yurgandi-ku".

Padari buzrukori o'qituvchi edi. Nafaqaga chiqqach, ko'p o'tmay yurak xurujidan olamdan o'tdi. O'lim ham-maning boshida bor. Bugunni, ertami, inson bu dunyon tark etadi. Boshiga tushgan musibatni yengishda Bashor-at xolaga yolg'iz o'g'il Rashid tayanch bo'ldi. Ona o'g'lini ziyo bo'lib, ota kasbini davom ettirishini orzu qilardi. Rashid maktabni bitirib, ro'zg'or tebratishda onaizoriga yordam berish uchun ishga kirmoqchi bo'lganida unga nasihat qildi.

- O'g'ilim, mana maktabni ham bitirding, bilimlaring sovoni turib, birorta o'qishga kirсан bo'lardi.

- Enajon, ro'zg'orni kim tebratadi, qiynalib qolasiz!

- Mendan xavotir olma bolam, Xudoga shukur hali kuydirib-pishirishga qurbim yetadi. Nasib bo'lsa, o'qisang, otang kasbini davom ettirsang, ruhi shod bo'lardi, rahmatlining.

Rashid institutda o'qiy boshladi. Yotoqxonada turar, har yaksha buya ug'a borganda onasi Bashorat xola bir haftaga yetgilik non yopib, mayiz, turshak, yong'oq, jyda bilan to'rvaga solib berib yubaror, sut-qatiq so'tishidagi yiqqan pulini yo'l kira qilasan, deb qo'liga tutardi. Instituti bitirgach, taqsimot komissiyasi uni ikki yil muddatga ishlab kelish uchun olsi viloyatlardan biriga jo'natdi. Ilgari taomil shunday edi - yosh mutaxassis o'qishini bitirgach, kadrlarning muhtoj huddidlarda ikki yil ishlab berishi tablab qilinadi. Bu muddat Rashid uchun uzoqqa cho'zilib ketdi. Xizmat pilapoya bilan tez yuqorilab bordi. Bilimdon, tirishqoq, odamoxun yigit tanish-bilish, yor-birodar orttirdi, jamoatchilik mehrini qozondi. Uylandi, uyligi bo'ldi. O'sha yerda tub qo'yib, palak yozdi. Bashorat xola avaliga o'g'lini bag'ridan uzoqda bo'lishiga qarshilik qildi. O'zga maskanga ko'chib borishga esa rozi bo'lmadi.

